

Esingizda bo’lsa “3 dekabr – xalqaro nogironlar kuni” munosabati bilan, 20 noyabrdan – 1 dekabrga qadar universitetda “SEN YOLG’IZ EMASSAN” shiori ostida aksiya e’lon qilingan edi. Kimningdir mehri va yordamiga muxtoj bo’lgan yetim va nogiron bolalarga beg’araz yordam berishni xoxlagan talaba va o’qituvchilarni ushbu aksiyada faol ishtirok etdilar. Aksiya doirasida yig’ilgan ertak va badiiy kitoblar hamda o’quv qurollarini bayram arafasida Yunusobod tumanidagi 31-mexribonlik uyining 87-yordamchi maktabi tarbiyalanuvchilariga hadya etildi.

